

Abdullayeva Feruza Nurillayevna
Buxoro davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarni o'rgatishda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi, adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati, o'qituvchilarni ushbu jarayonga tayyorlash, pedagoglarning fanga oid kompetensiyalarini oshirish borasidagi fikr-mulohazalar, boshlang'ich sinf ona tili darslarida badiiy asarni o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yin, fanga oid kompetensiya, badiiy tushuncha, adabiy-nutqiy kompetensiya, sun'iy intellekt, interaktiv ta'lim dasturlari, multimediya vositalari.

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР ПРИ ОБУЧЕНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы методики развития аналитической компетенции художественного произведения при обучении художественным произведениям, значение развития литературно-речевой компетенции, подготовка учителей к этому процессу, отзывы о повышении предметной компетенции педагогов, вопросы использования дидактических игр при обучении художественному произведению на уроках родного языка в начальных классах.

Ключевые слова: дидактическая игра, предметная компетентность, художественное понимание, литературно-речевая компетентность, искусственный интеллект, интерактивные образовательные программы, мультимедийные инструменты.

DEVELOPMENT OF COMPETENCE IN THE ANALYSIS OF A WORK OF ART USING DIDACTIC GAMES WHEN TEACHING WORKS OF ART IN READING LITERACY LESSONS

Annotation. This article presents the methodology for the development of competence in the analysis of a work of art in teaching fiction, the importance of the development of literary and colloquial competence, feedback on the preparation of teachers for this process, increasing the competencies of educators on science, the use of didactic games in teaching fiction in elementary class native language lessons.

Keywords: didactic game, competence in science, artistic understanding, literary-speech competence, artificial intelligence, interactive educational programs, multimedia tools.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda badiiy asarlarning o'rni katta ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy adabiyot bolalarning tafakkurini rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asarlarni o'rgatishning samarali usullarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda badiiy asarlarning o'rni beqiyos. Badiiy asarlar bolalarning nutqini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, boshlang'ich sinf darsliklarida hikoya, ertak, she'r kabi janrlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'limning sifat va samaradorligini yanada oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, zamon talablariga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlash hamda rivojlangan mamlakatlar ro'yxatidan o'rin egallash maqsadida didaktik o'yinlar, sun'iy intellekt, interaktiv ta'lim dasturlaridan foydalanilmoqda. Didaktik o'yinlar turli sohalarida qo'llanilib, modernizatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda ta'lim tizimini isloh qilishda, zamonaviy, yangi bosqichga ko'tarishda o'rni beqiyos. O'quvchilarni didaktik o'yinlar bilan tanishtirishda topshiriqlarning kompyuterli variantlarini tayyorlash, mavzularni animatsion va multimediyali effektlarga boy shaklda taqdim qilish mumkin. Bu jarayonda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi va an'anaviylikdan qochishga erishiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari harakatlanuvchi elementlar, multimedia vositalari, turli kompyuter dasturlariga nisbatan qiziqishi yuqori bo'ladi. 2023-2024-o'quv yillaridan boshlab boshlang'ich sinflarda informatika fani o'qitila boshlandi. Bu ham o'quvchilarning kompyuter savodxonligi va texnik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Zero, didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim mazmunini takomillashtiradi, o'zlashtirish jarayonini yaxshilab, o'quvchilarning kompetensiyaviy xususiyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Badiiy asarlarni o'rgatish metodikasi adabiyotshunoslik, pedagogika va psixologiya sohalarini qamrab oladi. Bu metodika o'quvchilarning badiiy asarlarni tushunish, baholash va ular bilan hissiy jihatdan bog'lanish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda badiiy asarlarni o'qitish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bolalarning nafaqat o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning badiiy tafakkuri, tasavvur doirasi va nutqini ham shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf 1-sinf o'qish savodxonligi darsligida Yayra Sa'dullayevaning "Izza – bir qoshiq jizza" hikoyasi berilgan. "Izza – bir qoshiq jizza" hikoyasi o'zbek adabiyotida mashhur bo'lgan asarlardan biri bo'lib, unda insoniy qadriyatlar, munosabatlar, hayotiy sinovlar va ularni yengish haqida so'z yuritiladi. Hikoyaning asosiy mavzusi insonning hayotda duch keladigan qiyinchiliklar va ularni yengish orqali o'ziga ishonch va izzatini qozonishidir.

Hikoyaning bosh qahramoni Irisvoy va Azizvoy bo'lib, Irisvoyning Azizvoydan alami borligi, Azizvoy Irisvoy bilan o'ynamoqchi bo'lib, bexosdan uni izza qilgani, qishda bo'lgan voqealar haqida qiziqarli taassurotlardir. Badiiy asarda quyidagi asosiy mavzular aks etadi:

Irodasi kuch va qat'iyat: Izza hayotdagi qiyinchiliklarni yengish uchun kuchli irodaga ega bo'lishi kerak. Uning qat'iyati va harakatlari orqali u o'z maqsadlariga erishadi.

Munosabatlar: Hikoyada do'stlarning bir-biriga bo'lgan muhabbati, yordami va hamkorligi aks etadi. Izzadagi do'stiga alami bilan qiyinchiliklarni yengadi.

Izzat va hurmat: Izza o'z hayotida izzat va hurmatni qozonish uchun kurashadi. Uning harakatlari va qadriyatlari orqali u atrofidagi odamlarning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Hayotiy sinovlar va ularni yengish: Hikoyada hayotdagi sinovlar va ularni yengish orqali insonning ruhiy jihatdan mustahkamlanishi tasvirlanadi. Izza hayotning og'ir lahzalari bilan kurashib, ularni yengadi va o'z hayotini yaxshilaydi.

Hikoyaning asosiy g'oyasi shundaki, hayotda har qanday vaziyat bo'lishi mumkin, lekin insonda kuchli iroda, sabr va yordamchi odamlar bo'lsa u har qanday muammoni yengil yechib ketadi. Izza va Azizvoy qahramonlari orqali o'quvchilarga hayotdagi qiyinchiliklarni yengish va izzatli hayot kechirish haqida ilhom beriladi.

Bu hikoya o'zbek adabiyotida insoniy qadriyatlar va hayotiy mavzularni yoritish bilan ajralib turadi va o'quvchilarga hayotiy saboq va ilhom beradi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi – bu adabiy asar mazmunini, badiiy vositalarini, g'oyaviy yo'nalishini va uning estetik ta'sirini anglash va baholash qobiliyatidir. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini singdirgan o'quvchi o'rganilgan asar nomi, ertak, topishmoq, maqol va tez aytishlarni ajrata oladi, o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

Badiiy asar mavzusini o'rgatish jarayonida mavzuga mos turli xildagi rasmlar, rebuslar, mozaikalar, harakatlanuvchi yoki ovoqli effektlardan foydalanish mumkin. Mavzuga oid matnlarni rasmlar yordamida tasvirlash yoki gaplar o'rnini o'zgartirib, ma'lum bir so'zlarni tushirib qoldirish

94 kabi topshiriqlarni kompyuter vositalari ko'rsatib berish bilan birga videolavhalar, audio shakllardan foydalanish o'quvchilar tafakkurini boyitib, xotirasini sinovdan o'tkazishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida badiiy matnning didaktik, tasviriy, hikoya mazmunli matn kabi tiplarini ko'rishimiz mumkin. Matn xususiyatidan kelib chiqib, tahlil jarayonida o'quvchilar ko'z o'ngida yaxshiroq gavdalantirish maqsadida virtual ko'zoynaklar, gologrammalardan ham foydalanish mumkin. "Labirint", "Krossword", "Chaynword" kabi topshiriqlarni ekranda namoyish qilish o'quvchilarni topqirlikka undash bilan birga ko'z xotirasini ham aniqlashga yordam beradi. Shu jumladan, ta'lim sohasida qo'llash sifat va samaradorlikni oshirish bilan birga, vaqtdan unumli foydalanish, o'quvchilar diqqatini jalb qilish, kreativlikni oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish muhim innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu uslub nafaqat o'quvchilarni qiziqtirish, balki ularning tilshunoslik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Didaktik o'yinlar o'quv jarayonini interaktiv, vizual va personalizatsiyalangan qilishga yordam beradi. Masalan, o'yinli dasturlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va tushunchalarni yanada osonroq o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Shuningdek, ularni amaliy mashqlar orqali bilimlarini mustahkamlashga undaydi. Ushbu uslubning muvaffaqiyati uchun didaktik resurslardan to'g'ri va maqsadli foydalanish, o'qituvchilarning didaktik savodxonligini oshirish va darslarning didaktik maqsadlariga mos keladigan materiallarni ishlab chiqish muhimdir. Shu sababli, didaktik o'yinlarni boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida qo'llash zamonaviy pedagogik usul sifatida katta ahamiyatga ega va bu jarayon kelajak avlodni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: "O'zbekiston", 2021
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston", 2021
3. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Prezident farmoni 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Bayoz, 2022. - 304 b.
5. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - T. 3. - №. 3.
6. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. - 2022. - T. 2. - №. 3. - C. 47-50.
7. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2021. - T. 8. - №. 8.
8. Nurullayevna A. F. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY OMMAVOR MAQOLALARNI O'RGATISH //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. - 2022. - T. 2. - №. 4. - C. 406-409.
9. Kurbanova S. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ-ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА КУРБАНОВА ШОИРА НАРЗУЛЛАЕВНА, АБДУЛЛАЕВА ФЕРУЗА, ОЧИЛОВА ГО //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - T. 1. - №. 1.
10. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология-целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. - 2021. - C. 20.
11. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 6. - C. 1030-1035.

12. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLARI: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.034 Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
13. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.
14. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5
15. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
16. Qosimova K, Matjonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. "Ona tili o'qitish metodikasi".
17. Abdullayeva F.N., Shodiyeva M.A. Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali.- 2024, noyabr